

**MILLIY IQTISODIYOTGA JALB QILINAYOTGAN
INVESTITSIYALARNI HUDUDLAR KESIMIDA TO‘G‘RI
YO‘NALTIRISH HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHINING ASOSIY
OMILI**

Bakiyeva Iroda Abdushukurovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisoiyotiga kiritilayotgan investitsiyalar iqtisodiy hamda moliyaviy holati va ularning yaqin yillardagi iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liqligi tahlil qilingan. Shuningdek asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning huddudlar bo‘yicha to‘g‘ri va samarali taqsimlanishi hududlar iqtisodiy rivojlanishiga qay darajada ta’sir qilishi borasida tahlillar amalga oshirilgan hamda bu borada takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: Yalpi ichki mahsulot, iqtisodiy o‘sish, asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar, moliya-kredit tizimi, makroiqtisodiy muvozanat, biznesga yo‘naltirilgan investitsiyalar, xorijiy investitsiyalar, texnika-texnologiyaga investitsiyalar, tovar moddiy zaxiralariga investitsiyalar.

Аннотация: В данной статье анализируется экономико-финансовое положение инвестиций в экономику Узбекистана и их связь с экономическим ростом в последние годы. Кроме того, проведен анализ того, насколько правильное и эффективное распределение капитальных вложений по регионам влияет на экономическое развитие регионов, и разработаны предложения на этот счет.

Ключевые слова: Валовой внутренний продукт, экономический рост, инвестиции в основной капитал, финансово-кредитная система, макроэкономическое равновесие, бизнес-ориентированные инвестиции, иностранные инвестиции, инвестиции в технологии и оборудование, инвестиции в товарно-материальные резервы.

Kirish

O‘zbekiston mustaqil davlat maqomiga erishgan so‘ng mamlakat iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirishning turli xil xususiyatlarini hisobga olib har bir sohada jumladan iqtisodiy sohada ham o‘zining aniq yo‘nalishlarini belgilab oldi hamda ushbu yo‘l bo‘ylab o‘zining iqtisodiy rivojida davom etmoqda.

Bugungi kunda rivojlangan va takomillashtirilayotgan investitsion faoliyatning yo‘lga qo‘yilishida davlatimiz olib borayotgan oqilona investitsiya siyosatining natijalaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi nutqlarida – “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”¹ degan fikrlari va shu munosabat bilan 2019 - yilga “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” deb nomlaganlari ham bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning yaqqol natijasi desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mamlakat iqtisodiyotiga faol investitsiyalarni jalb etish, uni tarmoqlar va hududlar kesimida to’g’ri taqsimlar, samarali investitsiya faoliyatini tashkil etish, uning samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy muammolari mahalliy, xorijiy hamda MDH mamlakatlari olimlari tomonidan keng o’rganilgan va ularning ishlarida ilmiy-uslubiy hamda amaliy qoidalari bilan asoslab berilgan.

Shuningdek, bu kabi muammolar G’arb iqtisodchilari J.Xiks, A.Smit, D.Rikardo, J.Keyns, A.Pigu, M.Fridmen vas hu kabi bir qator olimlarning asarlarida, ilmiy tadqiqot ishlarida o’z aksini topgan.

Mamlakatimiz olimlari ilmiy ishlarida investitsiya jarayonlari, uni faollashtirish mexanizmlari va hududularda investitsiyalar samaradorligini

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/2228> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Rasmiy veb-sayti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. 28.12.2019.

oshirishning turli jihatlari A.V.Vaxobov, Sh.Mustafakulov, D.G’ozibekov, A.Hikmatov, Sh.Yuldashev, R.M.Muxiddinov, X.E.Amonov, Sh.X.Nazarov, N.N.Oblomuradov, N.A.Xashimova, A.A.Sobirov va boshqa bir qancha olimlar tomonidan yoritilgan².

Shu o’rinda ta’kidlash lozimki, iqtisodiètni modernizatsiyalash sharoitida O’zbekiston iqtisodiyotiga yo’naltirilgan investitsiyalar ko’lami, tahlili, hududlarda investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish, hududlarning o’ziga xos rivojlanishini hisobga olgan holda e’tiborni kuchaytirish talab etiladi. Mazkur tadqiqot ishi doirasida yuqorida qayd etilgan muammolarni atroflicha o’rganish nazarda tutilgan. Bu esa o’z navbatida, hududlarda investitsiyalar samaradorligini o’rganish asosida hududlar iqtisodiy o’sish ko’rsatkichlariga bo’lgan ta’sirini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish va tegishli takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Tahlil va natijalar

Investitsiyalar hajmi yalpi ichki mahsulot bilan to’g’ri bog’liqlikda ekanligini inobatga olsak, iqtisodiyotga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmining oshishi YaIM hajmining oshishiga va aksincha kamayishi kamayishiga olib keladi. Investitsiyalar dinamikasidagi o’zgarishlarni, shuningdek, yalpi ichki mahsulot tarkibida asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushini 1-jadval ma’lumotlarini tahlil qilish orqali yana ham aniqroq tushunishimiz mumkin.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida jami 30 mlrd.AQSh dollari iqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o’zlashtirilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 122,1 % ni tashkil etdi. Jumladan YAIM tarkibida asosiy kapitalga o’zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2023-yilda 33 foizni tashkil qilib o’tgan yilga nisbatan 7,7%ga oshganligini ko’rishimiz mumkin. Bu esa investitsiyalarni jalb qilish borasida ko’plab chora tadbirlar amalga oshirilayotganligidan daolat beradi.

² B.B. Berkinov va b. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. – T.: Iqtisod, 2011.- 128 b.; Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xojiriy investitsiyalar. O’quv qo’llanma. T.: Moliya, 2010.-238; Ш.Совершенствование научно- методологических основ повышения привлекательности инвестиционной среды в Узбекистане. Автореферат докторской (DSc) диссертации по экономическим наукам. БФА РУЗ, 2017.57 с.;

1-jadval

**O’zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan asosiy kapitalga investitsiyalar
hajmi (mlrd.AQSh.doll)³**

Yillar	Asosiy kapitalga investitsiyalar mlrd.AQSh.doll	YaIM mlrd.AQSh.doll	YaIM tarkibada asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi
2019	22,2	60,3	36,80%
2020	20,9	60,2	34,70%
2021	22,6	69,6	32,50%
2022	20,5	81,1	25,30%
2023	30	90,9	33%

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan mamlakatimizda investitsiya hajmi oshib borayotganligini ko’rishimiz mumkin, ammo jalb qilinayotgan investitsiyalarni hududlar kesimida taqsimlashda hududlar orasida katta tafovutlar yuzaga kelayotganligini Davlat statistika agentligi bergen ma’lumotlarda ko’rishimiz mumkin. Misol uchun 2023-yil yakunlari hisobotlariga ko’ra to’g’ridan – to’g’ri xorijiy investitsiyalar hajmi Buxoro viloyatida 12496,0 mlrd.so’mni tashkil qilgan bo’lsa Xorazm viloyatida bu ko’rsatkich 1399,7 mlrd.so’mni tashkil qilganini ko’rishimiz mumkin. Bu esa investitsiya kam ajratilayotgan hududlarda ko’proq investitsiyalarni jalb qilish borasida strategiyalar ishlab chiqishni va hududlarda mavjud muammolarni zudlik bilan bartaraf etishni talab qiladi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda mamlakatga investitsiyalarni jalb qilish, boshqarish hamda hududlar kesimida to’g’ri yo’naltirish asosida quyidagi muhim yondashuvlar mavjud:

- investitsiyalarni jalb qilishda faqat ma’lum bir hudular hamda ma’lum bir yo’nalishlar bilan chegaralanib qolmasdan, balki boshqa hududlarga ham tashqi va

³ O’zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha 2023-yil yakuni uchun hisobot. www.stat.uz.

ichki faol investorlarni jalg qilish lozim. Jumladan investitsiyalarni Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy kabi hududlarga faqatgina to‘g-kon, neft-gaz sohasiga yo‘naltirmasdan sog’liqni saqlash, ta’lim, turizim sohasini rivojlantirishga ya’ni turistlarni jalg qilish maqsadida Toshkent City, Texnopark kabi yirik lohiyalarni jalg qilish lozim.

- har bir hududlarga xorijiy investorlarni jalg qilish uchun hududning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda soliq va kredit bilan bog’liq imtiyozlar yaratish. Ya’ni Toshkent shahridagiga nisbatan yanada qulayroq imkoniyatlar hamda imtiyozlar yaratish zarur;

- investitsion faoliyatni tanlash jarayoni sifatida ko‘rib, investitsion resurslarni jalg qilish va asoslash hamda investitsiyalash mexanizmini investitsion faoliyatni amalga oshirish maqsadida foydalanish zarur.

- investitsiyalarni jalg qilish va boshqarish obyektning investitsion jozibadorligini baholash bilan amalga oshiriladi;

- turli xil tarmoqlarga investitsiyalarni jalg qilish va ularni boshqarishning usullari tanlanayotganda investitsiyalash jarayonida ishtirok etayotgan investorning manfaatlari hamda mamlakatning manfaatlarining mos kelishini inobatga olish lozim;

- hukumat tomonidan loyihalarni investitsiyalashda aholi va davlat olinadigan natijalardan manfaatdor bo’lishi shu bilan birga ijtimoiy muammolarni hisobga olish talab etiladi.

Ushbu yondashuvlar natijasida investitsiyalarni jalg qilish va boshqarish konsepsiysi haqidagi fikr va mulohazalarni umumlashtirgan holda, shuni aytish lozimki har bir konceptual yondashuv mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishga xizmat qilishi va uni yanada rivojlanishi uchun zamin yaratishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati” to’g’risidagi. 25.12.2019. O’RQ-598-son.
3. X.X.Imomov. Investitsiya. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022, 408b.
4. N.G. Mankiw Macroeconomics 7th edition 2009 Worth Publishers pp. 62-64.
5. O‘zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish hajmi va tarkibi 2023-yil yakuni bo'yicha hisobot. www.stat.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha 2023-yil yakuni uchun hisobot. www.stat.uz.